

### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2 688,7 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 2 528,0 mlrd. so‘mni (102,8 %), o‘rmon xo‘jaligi – 138,1 mlrd. so‘mni (101,7 %), baliqchilik xo‘jaligi - 22,6 mlrd. so‘mni (109,3 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 8,0 % ni tashkil etdi.



2 688,7

Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik  
xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



2 528,0

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu  
sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02



138,1

**O‘rmon xo‘jaligi**


03




22,6

**Baliqchilik xo‘jaligi**

## Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot




### Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da



2022- yilning yanvar-mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 102,8 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarga, 101,7 foizi - o'rmon xo'jaligiga, 109,3 foizi - baliqchilik xo'jaligiga to'g'ri keladi.


**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot  
(xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**



2022- yilning yanvar-mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Asaka (269,3 mlrd. so'm) va Shahrixon (257,5 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Bo'ston tumani (77,9 mlrd. so'm), va Xonobod. shahar (28,8 mlrd. so'm)ni keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (102,8 %) yuqori o'sish sur'atlari Pahtaobod (108,5 %) va Xo'jaobod (104,2 %) tumanlarida kuzatildi. Shahrixonda (101,0 %), Andijon (101,1 %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 510,7 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 161,7 mlrd. so'mni (100,6 %), chorvachilik mahsulotlari – 2 349,0 mlrd. so'mni (102,7 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi, % da



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, % da**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida  
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, % da**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 87,3 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 9,1 foizi - fermer xo‘jaliklariga, 3,6 foizi - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha  
xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**



■ Fermer xo‘jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

■ Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Ulug‘nor tumanida (31,8 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Xonobod shahrida (100,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Paxtaobod tumanida (13,0 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Buloqboshi tumanida (3,4 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Paxtaobod tumanida (76,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Ulug‘nor tumanida (0,3 %) qayd etildi.


## Dehqonchilik

2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 161,7 mlrd. soʻmni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 6,4 % ni tashkil qildi.

### Sabzavotlar



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 4,1 ming tonna sabzavotlar (2021- yilning yanvar-martiga nisbatan 106,6 % ga koʻp) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 70,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.

### Hududlar boʻyicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t.






## Chorvachilik



2022- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 346,0 mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,7 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.



2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 43,5 ming tonna go'sht (2021- yilning yanvar-martga nisbatan 104,6 % ga ko'p), 105,0 ming tonna sut (101,9 % ga ko'p), 55,7 mln. dona tuxum (106,5 % ga ko'p) va 1,8 tonna baliqchilik (109,7 % ga ko'p) ovlandi.



### Go'sht (tirik vaznda)




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 43,5 ming tonna go'sht (2021- yilning yanvar-martga nisbatan 104,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 90,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


### Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna




## Sut



## O'sish sur'ati, % da



## Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 105,1 ming tonna sut (2021- yilning yanvar-martga nisbatan 101,9 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 91,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


## Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, ming tonna



## Tuxum



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 55,7 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar-martga nisbatan 106,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 53,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.


## **Hududlar bo'yicha olingan tuxum hajmi, mln. dona**




## Baliq



## **O'sish sur'ati, % da**



## **Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 821,3 tonna (2021- yilning yanvar-martga nisbatan 109,7 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 63,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

## **Hududlar bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni



2022- yining 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 18,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 79,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 5,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 084,4 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 32,2 ming ta (3,1 %)ga ko‘paydi.


### Yirik shoxli qoramollar



### **O‘sish sur‘ati, % da**



### **Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.

### **Hududlar bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh**








2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 369,9 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 11,4 ming taga (3,2 %) ko'paydi.

### Sigirlar



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




- Ferma xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


### **Hududlar bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh**




2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarining umumiy bosh soni 1 480,9 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 38,7 ming taga (2,7 %) ko'paydi.


### Qo'y va echkilar



### **O'sish sur'ati, % da**



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarining 93,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


### **Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarining umumiy bosh soni, ming bosh**



2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 6 940 taga yetdi.  
2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni – 287 taga (4,3 %) ko'paydi.



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 79,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


**Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni**




2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 287,1 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 618,1 ming taga (8,1 %) ko'paydi.


### Parrandalar



### **O'sish sur'ati, % da**



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi, % da**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 66,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

### **Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh**

